



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "23" sentabr

№ 32

Avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizomni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4796-son qaroriga muvofiq, avtomobil transporti faoliyatining asosiy statistika ko'rsatkichlarini takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. Avtomobil transporti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 16- noyabrdagi "Avtomobil transporti faoliyati asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha uslubiy Nizom"ni tasdiqlash to'g'risidagi 23- sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qaror 2023- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov